

Date: 19<sup>th</sup> November-2024

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA IQ (INTELEKT KOEFFISENTI)NI  
KUCHAYTIRUVCHI PSIXOLOGIK MASHG‘ULOTLAR**

**Sharapova Dildora Baxtiyarovna**

International school of finance and technology science instituti o‘qituvchisi ,  
Psixologiya fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), [sharapovad@isft.uz](mailto:sharapovad@isft.uz)

**Rahimboyeva Nigora Ravshanovna**

International school of finance and technology science institute, 24-BT-01, 1-kurs  
talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida IQni kuchaytirishga qaratilgan va ularning umumiy aqliy rivojlanishini yaxshilashga yordam beruvchi psixologik mashg‘ulotlar xususida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** intellekt ko‘effitsenti (IQ), intellektual ko‘rsatkich, individ, psixologik kategoriya, emotsional qobiliyat, mantiqiy fikrlash.

**Аннотация:** В данной статье описаны психологические упражнения, направленные на повышение IQ учащихся младших классов и способствующие улучшению их общего умственного развития.

**Ключевые слова:** коэффициент интеллекта (IQ), интеллектуальный показатель, личность, психологическая категория, эмоциональные способности, логическое мышление.

**Annotation:** This article describes psychological exercises aimed at increasing the IQ of primary school students and helping to improve their overall mental development.

**Key words:** intelligence quotient (IQ), intellectual indicator, personality, psychological category, emotional abilities, logical thinking.

**Kirish.**

O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-sonli “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuniga asosan, boshlang‘ich ta‘lim – ta‘lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta‘limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Qonunchiligimizdagi ushbu tamoyil shuni ko‘rsatadi-ki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligi, bilimini oshirish dolzarb masaladir. Zero, buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy aytganidek, “Yoshlikda olingan bilim – toshga o‘yilgan naqshdir”. Shunday ekan, bolalarning boshlang‘ich sinfdaligidanoq tafakkurini kengaytirish, kerakli bilim bilan qurollantirish zarur. Shu o‘rinda o‘quvchilarning intellektual salohiyatini boyitish uchun ularning intellekt ko‘effitsentini ko‘tarishga qaratilgan mashg‘ulotlarni darslar qatoriga kiritish ehtiyoji mavjud. Bilamiz-ki, bugungi kunda sifatli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi sababli farzandlarimiz nafaqat fanni chuqur bilishi, balki tanqidiy, mantiqiy fikrlay olishi ham kerak. Dars mashg‘ulotlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun intellekt ko‘effitsentini ko‘tarishga



Date: 19<sup>th</sup> November-2024

qaratilgan interaktiv metodlardan foydalanish orqali ulardagi mantiqiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga erishish mumkin.

IQ (intellekt ko'rsatkichi) – bu individning aqliy qobiliyatini o'lchovchi ko'rsatkich bo'lib, umumiy mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish, tez va samarali qarorlar qabul qilish, til va matematik ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Intelektual rivojlanish bolalik davrida shakllanadi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik va kognitiv salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular uchun mo'ljallangan psixologik mashg'ulotlar, IQni oshirish, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan IQ naqadar muhim ekanligini anglash barobarida quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellekt koeffitsientini kuchaytirishga qaratilgan psixologik mashg'ulotlarni taklif qilamiz.

### **1. Mantiqiy va matematik mashqlar.**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun turli xil misollar va mashqlar ishlatiladi. Masalan, "kategoriyalarni ajratish", "o'xshashlik va farqlarni topish", "sodda matematik masalalar"ni hisoblash kabi mashqlar shular jumlasidandir. Misol uchun, o'quvchilarga bir necha buyumlar berib, ularni ma'lum bir xususiyatlariga ko'ra guruhlariga ajratish taklif etiladi. Jumladan, rang, shakl, o'lcham va boshqalar bo'lishi mumkin.

### **2. Xotira mashqlari.**

Xotirani kuchaytirish uchun turli xil yodlash mashqlari, raqamlar va so'zlar, mantiqiy ketma-ketliklar bilan ishlash samarali hisoblanadi. Misol uchun, O'quvchilarga bir nechta ob'yektlarni eslab qolish so'ralib, ularni keyinchalik tartib bilan qayta tiklash vazifasi beriladi.

### **3. Kreativ fikrlashni rivojlantirish.**

Bolalarga yangi g'oyalar va yechimlarni ishlab chiqishda erkin fikrlash imkoniyatini yaratish zarur. Bu jarayon mantiqiy fikrlashni kengaytirish va yangi fikrlarni qabul qilishga o'rgatadi. Misol uchun, "Agar sen kosmonavt bo'lsang, qanday g'aroyib kashfiyotlar qilishni xohlar eding?", "Agar sening laboratoriyang bo'lsa, u yerda qanday tajribalar o'tkazgan bo'lar edin?" va boshqa shu kabi savollar bilan o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga erishish mumkin.

### **4. Protsessual fikrlashni rivojlantirish.**

Muammolarni hal qilishda tizimli va mantiqiy yondoshuvlarni rivojlantirish nazarda tutilib, bunda o'quvchilarga bosqichma-bosqich muammolarni yechish uchun yo'l-yo'riqlarni ko'rsatiladi. Masalan, "Agar senda 5 ta olma bo'lsa va 3 tasini boshqasiga berishing kerak bo'lsa, senda qancha olma qoladi?" kabi savollarni berish orqali uning boshlang'ich jarayon bilan aloqador fikrashi rivojlanadi.

### **5. Tasavvurlarni rivojlantirish.**

Bolalar tasavvurini va xayoliy fikrlashini rivojlantirish uchun turli xil vizual mashqlarni bajarish mumkin. Bular geometrik shakllarni tasavvur qilish, simmetriya va proporsiyalarni tanish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, bolalarga turli shakllarni,



Date: 19<sup>th</sup> November-2024

ularning qismlarini va bir-biriga o'xshash yoki farq qiladigan shakllarni toppish vazifalarini berish ham mumkin.

#### **6. Ijtimoiy va emotsional qobiliyatlarni rivojlantirish.**

O'quvchilarni ijtimoiy munosabatlar va emotsional qobiliyatlarni rivojlantirishga undash orqali ularning fikrlash va muammolarni hal qilish usullariga bevosita ta'sir qilinadi. Misol uchun, "Agar sen do'stingning o'yinchoqlarini sindirib qo'ysang, o'zingni qanday his qilasan va qanday javob berishing mumkin?" kabi masalalarni berish orqali o'quvchilardagi ijtimoiy va emotsional tafakkur qobiliyatini rivojlantirishga erishiladi.

IQni kuchaytiruvchi mashg'ulotlarni amaliyotda qo'llashning bir qator samarali jihatlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida IQni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar nafaqat akademik ko'nikmalarni, balki emotsional va ijtimoiy salohiyatni ham rivojlantiradi. Shuningdek, psixologik mashg'ulotlar o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantiradi:

- Mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati;
- Ijtimoiy va emotsional qobiliyatlarning rivojlanishi;
- Yangi bilimlarga qiziqish va o'rganishga intilish;
- Xotira va tasavvur qilish ko'nikmalarining kuchayishi;

Mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish uchun o'quvchilar bilan muntazam ravishda IQni kuchaytiruvchi mashg'ulotlarni tashkil etish, intellektual salohiyati bilan bog'liq muammosi bo'lganlar bilan individual ishlash talab etiladi. Dars mashg'ulotlarida ushbu metodlardan foydalanish esa darsning yanada qiziqarli va kreativ bo'lishiga sabab bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joiz-ki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining IQ darasini kuchaytirishga qaratilgan psixologik mashg'ulotlar ularning umumiy aqliy rivojlanishini yaxshilashga yordam beradi. Bu mashg'ulotlar, nafaqat bolalarning mantiqiy salohiyatini rivojlantirish, balki ijtimoiy va emotsional ko'nikmalarini ham kuchaytiradi. Rivojlangan intellektual salohiyat va mustahkam psixologik asoslar bolalar uchun kelajakda muvaffaqiyatli o'qish va hayotiy faoliyatni ta'minlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 23.09.2020.
2. Sh.M.Pirov. "Bolalar psixologiyasi" (Toshkent, 2015).
3. Maysarova T.L., M.A.Solovova. "Psixologik rivojlanish va IQni oshirish" (Moskva, 2010).
4. Yusupov M.G. "Bolalar va yoshlarning aqliy salohiyatini rivojlantirish" (Toshkent, 2017).
5. Vigotskiy S.I. "Pedagogik psixologiya" (Moskva, 1989).
6. Baxtiyarovna, S. D. (2022). Xotira: mustahkamlash yo'llari, usullari va vositalari. Scientific Impulse, 1(4), 328-333.



Date: 19<sup>th</sup> November-2024

7. Baxtiyarovna, S. D., Gavhar, G., & Jasmina, N. (2022). Pedagogik faoliyatda kreativ yondoshuv. Scientific Impulse, 1(3), 385-388.
8. Baxtiyarovna, S. D. Shukurullo o'g'li, NJ (2022). Tibbiyot xodimlarining hissiy-emotsional xususiyatlari. Scientific Impulse, 1(3), 439-443.
9. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. Қ. (2022). Мактабгача ёшдаги болаларнинг психофизиологик ривожланиши. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 681-689.
10. Ziynat, O., & Nafosat, S. (2023). Psixologiyada ong va ong haqidagi nazariyalar. Scientific Impulse, 1(8), 857-860.

